



UDK:370.2

*Iroda MUXITDINOVA,*  
*O‘zbekiston milliy universiteti tadqiqotchisi*  
*E-mail: i.mukhitdinova@gmail.com*

*FDTU katta o‘qituvchisi, PhD N.Farxodjonova taqrizi asosida*

### MAFKURAVIY XAVFSIZLIK VA BARQARORLIKKA YANGI TAHDIDLAR SHAROITIDA SIYOSIY TRANSFORMATSIIYA MUAMMOSI

Annotatsiya

Ushbu maqolada globallashuv va yangi xavfsizlik muhitida mafkuraviy xavfsizlik va barqarorlikka yuzaga kelayotgan yangi tahdidlar kontekstida siyosiy transformatsiya masalalari tahlil qilinadi. Muallif zamonaviy siyosiy o‘zgarishlar, ideologik xavfsizlikni ta‘minlash mexanizmlari va barqaror rivojlanish tamoyillarini o‘rganib, mafkuraviy tahdidlarga qarshi strategik chora-tadbirlarni ko‘rsatadi. Maqolada nazariy va amaliy jihatlari uyg‘unligi asosida siyosiy transformatsiyaning ijtimoiy va davlat barqarorligiga ta‘siri yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Mafkuraviy xavfsizlik, siyosiy transformatsiya, barqarorlik, tahdid, xavfsizlik, mafkuraviy barqarorlik.

### IDEOLOGICAL SECURITY AND THE PROBLEM OF POLITICAL TRANSFORMATION UNDER NEW THREATS TO STABILITY

Annotation

This article analyzes issues of political transformation in the context of globalization and a new security environment, highlighting emerging threats to ideological security and stability. The author examines contemporary political changes, mechanisms for ensuring ideological security, and principles of sustainable development, proposing strategic measures against ideological threats. The article emphasizes both theoretical and practical aspects of the impact of political transformation on social and state stability.

**Key words:** Ideological security, political transformation, stability, threat, security, ideological resilience.

### ПРОБЛЕМА ПОЛИТИЧЕСКОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ В УСЛОВИЯХ НОВЫХ УГРОЗ ИДЕОЛОГИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ И СТАБИЛЬНОСТИ

Аннотация

В статье анализируются вопросы политической трансформации в контексте новых угроз идеологической безопасности и стабильности в условиях глобализации и новой среды безопасности. Автор исследует современные политические изменения, механизмы обеспечения идеологической безопасности и принципы устойчивого развития, а также предлагает стратегические меры против идеологических угроз. На основе сочетания теоретических и практических аспектов рассматривается влияние политической трансформации на социальную и государственную стабильность.

**Ключевые слова:** Идеологическая безопасность, политическая трансформация, стабильность, угроза, безопасность, идеологическая стабильность.

**Kirish.** Zamonaviy dunyoda globallashuv jarayonlari va xalqaro muhitdagi tezkor o‘zgarishlar davlatlarning siyosiy, ijtimoiy va mafkuraviy barqarorligiga yangi tahdidlar yaratmoqda. Mafkuraviy xavfsizlik milliy xavfsizlikning eng muhim tarkibiy qismiga aylangan bo‘lib, jamiyatning barqaror rivojlanishi va davlat institutlarining samarali faoliyatiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Yangi tahdidlar sharoitida siyosiy transformatsiya nafaqat boshqaruvni modernizatsiya qilish vositasi, balki mafkuraviy xavflarga qarshi strategik mexanizm sifatida ham ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, u mafkuraviy barqarorlikni ta‘minlash va siyosiy tizimdagi o‘zgarishlarni muvofiqlashtirishning samarali usullarini aniqlashga xizmat qiladi, bu esa davlatning uzoq muddatli barqarorligini mustahkamlashga yordam beradi.

Bugungi kunda globalizatsiya hayotimizga tobora chuqurroq kirib bormoqda. Uning ta‘sir doirasi, kuchi va ommaviy xarakteri rivojlanishning dastlabki bosqichida bo‘lgan va endilikda taraqqiyot yo‘lidan borayotgan davlatlar xalqlarining milliy mafkuraviy va ma‘naviy qadriyatlariga sezilarli ta‘sir ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, global jarayonlar ularning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy tizimlariga ham ta‘sir etib, uzoq muddatda milliy an‘ana va qadriyatlarining zaiflashishiga sharoit yaratmoqda.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Globalizatsiya jarayonlari nafaqat ommaviy axborot vositalari (televideoniye, internet, mobil texnologiyalar) orqali, balki iqtisodiy faoliyat vositalari orqali ham amalga oshmoqda. Integratsiya va iqtisodiy o‘shishning ayrim ijobiy natijalari aholining moddiy hayot sharoitiga ta‘sir qilayotgan bo‘lsa-da, milliy ma‘naviyatning zaiflashuvi jarayoni ko‘pincha sezilmay qolmoqda. Ayniqsa, globalizatsiya urf-odat, an‘ana va qadriyatlarining yo‘qolishiga olib kelayotgan ta‘siri aniq namoyon bo‘lmoqda. “Dunyo shiddat bilan o‘zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga rahna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo‘layotgan bugungi kunda ma‘naviyat va ma‘rifatga, ahloqiy tarbiyaga, yoshlarning bilim olish va kamolga yetishga intilishiga e‘tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir”[1].

Bugungi kunda global jarayonlar va ularning ijtimoiy, siyosiy va mafkuraviy tizimlarga ta‘siri shiddat bilan kuchaymoqda. Ayniqsa, milliy urf-odat, an‘ana, qadriyat va ahloqning o‘zgarishiga qaratilgan tahdidlar mafkuraviy xavfsizlik va barqarorlik uchun jiddiy xavf yaratmoqda. Shu sababli, yoshlar mafkuraviy ongini shakllantirish va ularni jamiyatimiz barqarorligini mustahkamlash jarayoniga faol jalb etishda innovatsion usullarni qo‘llash dolzarb vazifalardan biriga aylanib bormoqda. Ushbu muammoni ilmiy yondashuv

bilan hal etish uchun avvalo global jarayonlar mohiyatini aniqlash, ularning yangi mafkuraviy tahdidlarini o'rganish va ularni nazariy jihatdan tahlil qilish zarur. Shu nuqtai nazardan, tadqiqotning dolzarbligi quyidagi jihatlarda namoyon bo'ladi:

Tarixan shakllangan milliy va umumiy insoniy qadriyatlarining inson, jamiyat va davlat barqarorligiga ta'siri, ularning rivojlanish tamoyillari va funksional ahamiyatini nazariy va falsafiy tahlil qilish;

Mafkuraviy kurashlar davrida yoshlar mafkuraviy ongini rivojlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion usul va vositalarning samaradorligini ilmiy asoslash;

Siyosiy transformatsiya va barqarorlik sharoitida yoshlar mafkuraviy ongini mustahkamlashning uzviy bog'liqligi va ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va g'oyaviy-mafkuraviy ta'sirini aniqlash;

Milliy va umumboshqaraviy qadriyatlarining uyg'unlashuvi orqali yoshlar mafkuraviy ongini rivojlantirish jarayonlarini ilmiy tahlil qilish;

Yuqori milliy va umumboshqaraviy qadriyatlarining hozirgi davrda siyosiy, ijtimoiy va mafkuraviy muammolarni hal etishdagi roli va ahamiyatini aniqlash;

Innovatsion usullar orqali yoshlar mafkuraviy ongini oshirishning barqaror rivojlanish, siyosiy transformatsiya va jamiyat barqarorligidagi o'rni va rolini o'rganish;

Amaliy jihatdan yoshlar mafkuraviy ongini rivojlantirishning samarali usul va mexanizmlarini aniqlash va taklif etish.

**Natija va muhokama.** Hozirgi davrda global jarayonlar shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir paytda, mafkuraviy vositalar orqali ta'sir doirasini kengaytirishga intilayotgan siyosiy kuchlar va harakatlar keskinlashib bormoqda. Muayyan millat, jamiyat yoki davlat barqarorligiga tahdid soluvchi, siyosiy va konstitutsiyaviy tizimni zaiflashtirishga yo'naltirilgan, shuningdek, fuqarolar va jamoat xavfsizligiga xavf tug'diruvchi mafkuraviy bosimlar tobora ortmoqda. Bunday tahdidlarni amalga oshirayotgan kuchlar o'z maqsadlariga erishish uchun odamlarning diniy va milliy his-tuyg'ularidan, ijtimoiy-iqtisodiy muammolaridan hamda zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalaridan ustalik bilan foydalanishga harakat qiladilar. Natijada, ayniqsa yoshlar orasida buzuvchi g'oya, ekstremizm va axloqiy qadriyatlarni izdan chiqaruvchi mafkuraviy ta'sirlar tobora kuchayib bormoqda.

XXI asrning siyosiy va tarixiy tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlat va millatning xavfsizligi, barqarorligi va taraqqiyoti ko'pincha ularning yangi tahdidlarni anglash va ularga qarshi samarali chora ko'rish salohiyatiga bog'liq. "Tahdid" tushunchasi inson faoliyatiga, jamiyat va davlat siyosiy tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan, tarixiy sharoitda ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan, mahalliy, hududiy, mintaqaviy va global salbiy omillarni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, tahdidlar ichki va tashqi, yaqin va uzoq, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ekologik, demografik, harbiy va mafkuraviy xarakterda bo'lishi mumkin[2].

Mafkuraviy tahdid – bu jamiyat, davlat yoki millat barqarorligiga xavf soluvchi, fuqarolar ongini boshqarish, ularni qo'rqitish yoki majburlash orqali maqsadli g'oyalarni

singdirishga qaratilgan ijtimoiy-siyosiy vositalar majmui hisoblanadi. Globalizatsiyaning chuqurlashuvi sharoitida bu tahdidlar nafaqat milliy qadriyatlarni, balki ahloqiy-ijtimoiy tizimni, oilaviy va madaniy an'analarni ham izdan chiqarish xavfini oshirmoqda[3].

Mamlakatimizda mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlash, yangi tahdidlarni aniqlash va ularni bartaraf etish mexanizmlarini ishlab chiqish siyosiy transformatsiyaning muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Ilmiy va amaliy jihatdan bu masala O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruv akademiyasi, Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti, shuningdek, mamlakatimizning jamoatshunos olimlari tomonidan chuqur o'rganilmoqda. Ularning tadqiqotlari barqarorlik, xavfsizlik, fuqarolik hamjihatligi va rivojlanish tamoyillari bilan uzviy bog'liqdir. Mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlash va yoshlar ongini himoya qilish siyosiy transformatsiya jarayonida strategik vazifa bo'lib, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy barqarorligini mustahkamlash va global tahdidlarga qarshi samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi[4].

Global jarayonlar va yangi tahdidlar sharoitida siyosiy transformatsiya mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlashning eng samarali mexanizmlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mafkuraviy tahdidlar nafaqat milliy qadriyatlarni, balki davlat siyosiy tizimi, ijtimoiy barqarorlik, fuqarolik hamjihatligi va yoshlar ongiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, siyosiy transformatsiya jarayonlarida mafkuraviy xavfsizlikni kuchaytiruvchi strategik chora-tadbirlarni ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Mafkuraviy tahdidlarning xilma-xilligi, ularning ichki va tashqi, yaqin va uzoq, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jihatlari siyosiy transformatsiya jarayonlarida tizimli va integratsiyalashgan yondashuvni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, mamlakatimizda mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlash tizimi siyosiy, ijtimoiy va madaniy institutlar bilan uzviy bog'liq bo'lishi, strategik va amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqishda ilmiy asoslangan metodlarni qo'llash zaruratini bildiradi. Shuningdek, global tahdidlar sharoitida yoshlar ongini rivojlantirish va ularni barqaror siyosiy tizimga integratsiyalash strategiyasi davlatning uzoq muddatli barqarorligini mustahkamlash, ijtimoiy-harakatlarining mafkuraviy asoslarini kuchaytirish va milliy qadriyatlarni himoya qilish bilan uzviy bog'liqdir. Shu bilan birga, amaliy jihatdan innovatsion metodlar, kommunikatsiya va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish yoshlar mafkuraviy ongini rivojlantirish va barqaror siyosiy muhitni shakllantirishda asosiy vosita sifatida namoyon bo'ladi.

**Xulosa.** Xulosa sifatida aytish muminki, siyosiy transformatsiya jarayonlarida mafkuraviy xavfsizlikni mustahkamlash va yoshlar ongini himoya qilish nafaqat milliy barqarorlikni ta'minlashga, balki global tahdidlarga qarshi samarali kurashishga xizmat qiladi. Shu jihatdan, ilmiy va amaliy jihatdan ishlab chiqilgan strategik chora-tadbirlar, innovatsion usullar va integratsiyalashgan yondashuvlar mamlakatimizning barqaror siyosiy, ijtimoiy va mafkuraviy rivojlanishi uchun muhim vosita hisoblanadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. –Т.: Ўзбекистон 2017 й. 1- жилд, 27-б.
2. Пахрутдинов.Ш.«Тahдид» тушунчаси: назария ва амалиёт. Т.: Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти, 1998. 7-8 б
3. Фалсафа: комуший лугат. –Т: Шарк, 2004., 250 б.
4. Йўлдошева С.М. Соғлом турмуш тарзи – таҳдидларга қарши кураш омили сифатида. Соғлом турмуш тарзини шакллантиришда ахлоқий кадриятларнинг ўрни. // -Т: 2009. 191 б.